

SO'Z JOZIBASI YOXUD“O'ZBEK CHEXOVI”

Moxinur Murodova

Farg'ona davlat universiteti Filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi talabasi

Dilyora Muhammadjonova

Farg'ona davlat universiteti Filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada o'zbek yozuvchisi Abdulla Qahhor ijodi tahlil qilinadi. Adib asarlarining o'zbek adabiyotiga ta'siri, g'oyalari, mazmuni, bugungi kundagi ahamiyati asarlar orqali qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: hikoya, badiiylik, estetik zavq, o'ziga xoslik,jahon adabiyoti.

Hikoya-adabiyotning kichik a'zosi. Unda ham voqealar, obrazlar boshqa janrlardan kam bo'limgan jihatlar bilan bir-biriga uyg'unlashadi.

O'zbek adabiyotida hikoya janrining eng zabardast vakillaridan biri Abdulla Qahhor qisqa hikoyalarda ko'p ma'no ifodalash rukni jihatdan doim yetakchidir. Hikoyalari oddiy, hayotiy, qisqa. Ammo ma'no-mazmuni,g'oyasi jihatdan roman bilab tenglashtirsa bo'ladi.

O'zbek nasrining rivojlanishida uning "Anor" hikoyasi, "Qo'shchinor chiroqlari", shuningdek, "Sinchalak", O'tmishtan ertaklar" asarlari muhim o'rinni tutadi. "O'tmishtan ertaklar" muallif va uning xotirasida chuqur iz qoldirgan odamlar haqida hikoya qiladi.

Abdulla Qahhor o'z qahramonlarining o'ziga xos xususiyatlarini tasvirlaydi. Asarlarida o'quvchilarga notalar va ko'rsatmalar bilan emas, badiiy obrazlar bilan ta'sir o'tkazishga intiladi.

"O'g'ri", "Bemor", "Anor" hikoyalarda amaldorlarni qoralaydi, ularning yomon ishlarini ko'rsatadi.

Hikoyalardagi satira va hazillar ortida adibning o'tmishtagi qoldiqlari gavdalananadi.

Abdulla Qahhor o'zbek tanqidchilaridan igariroq chet el adabiyotini o'rganishga kirishdi. Shulardan o'ziga ustoz deb bilgani Anton Chexov edi. Uning g'oya va uslublarini asarlariga singdira bordi. Abdulla Qahhorning "Millatchilar" va Chexovning "Hameleon" hikoyalari mazmun jihatdan yaqin. Ikkisida ham boy va mansabdar kimsalarga o'zini yaqin va yaxshi ko'rsatish, "o'z tusini o'zgartirish" ni qoyillatadigan kishilarni yumor ostiga oladi.

Yoki O. Genrining "So'nggi saboq" va Abdulla Qahhorning "Ming bir jon" hikoyalarda ham g'oya ca mazmun jihatdan yaqinlik bor. Jonsi va Masturaning qismat chizig'ida xasta bo'lish, o'limga tik boqish bor. Jonsi taqdiriga rozi bo'ladi, Mastura esa hech narsaga quloq solmay, tuzalishiga ishonadi.

XXI-ASRNING ILMIY-AMALIY TADQIQOTLARI

Yana Hamzaning "Paranji sirlari" dramasi va adibning "Mayiz yemagan xotin" hikoyalarda paranji detali orqali jamiyatdagi illatlar fosh qilingan. Hamzaning Norboyvachcha va hikoyadagi atlas kiygan yigit obrazlari ham o'z davrining nopl ishlarini ochib berish uchun kalit hisoblanadi.

Bir so'z bilan aytganda, Abdulla Qahhor qalami badiiylik va haqgo'ylik bilan qog'ozda o'ynaydi. Uning bir satri bir olam mazmunni o'ziga sig'diradi. Adiba onamiz Kibriyo Qahhorova umr yo'ldoshining so'zga chechanligi, ma'navi olami, dunyoqarashlarini juda hurmat qilar ekan, Chorak asr hamnafas" bag'ishlanmasida ham guvohlik beradi. Tom ma'noda so'zlarni asarlarda "o'ynatgan" mohir rejissiyor"dir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Irina Borolina. Abdulla Qahhorning ijodkorlik inshosi. Toshkent,2020
2. Sirojiddinov Shuhrat. Abdulla Qahhor hayoti va ijodi. Toshkent,2022
3. Qosimov Umar. An'anaviylik, o'ziga xoslik, vorisiylik. Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, To'g'ay Murod ijodi misolida.
4. Abdulla Qahhor hikoyalari. Toshkent,2014
5. Chexov. Hameleon hikoyasi.
6. Genri. So'nggi yaproq hikoyasi.
7. Hamza. Paranji sirlari. Toshkent, 1970